


## Xorazm viloyatida 2018-yil yanvar-fevral oylarida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi.

Mamlakatimizda 2018-yil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirilishi bilan bir qatorda sanoat sohasida ham Davlatimiz tomonidan mavjud korxonalar quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, yangidan tashkil etilayotgan korxonalarga imtiyozlar yaratib berish natijasida Xorazm viloyatida 2018-yilning yanvar-fevral oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 815,2 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,6 foizni tashkil qildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi 2018 yil yanvar-fevral holatiga (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)




- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 94,3 foizni tashkil etdi (2017-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati 116,2 foiz). Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,004 foizni (o'sish sur'ati 107,7 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 5,2 foizni (o'sish sur'ati 124,2 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,5 foizni (o'sish sur'ati 122,0 foiz) tashkil qiladi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'sish darajasi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani (2017-yil yanvar-fevral oyilarga nisbatan 140,0 foiz), Shovot tumani (112,3 foiz), Bog'ot tumani (107,2 foiz), Urganch shahri (104,9 foiz)ga o'sganini ko'rish mumkin.

**2018-yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan foizda)**




**2018-yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to'g'risida (mlrd.so'mda)**



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida yuqori bo'lgan Xazorasp tumani, Urganch shahri, Xonqa va Bog'ot tumanlari xissasiga to'g'ri keladi.

**2018-yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)**



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 40,5 foiz, Urganch shahri 21,5 foiz, Bog'ot 6,6 foiz, Xonqa 6,3 foiz, va Shovot tumani 5,4 foizni tashkil qiladi.

**2018-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish.**


Iqtisodiy faoliyat turlari	mlrd.so'm	O'sish sur'ati, foiz hisobida
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>815,2</b>	<b>116,6</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>0,04</b>	<b>107,7</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,04	107,7
<b>Qayta ishlash faoliyati</b>	<b>768,74</b>	<b>116,2</b>
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	144,87	97,5
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	21,03	131,3

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari</b>	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	218,14	102,8
Kiyim ishlab chiqarish	12,68	96,3
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	0,77	102,7
Yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	0,66	107,5
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	1,81	105,2
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,12	107,7
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,004	107,7
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	1,5	105,0
Asosiy farmasevtika	0,70	102,8
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	3,16	118,1
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	23,77	108,5
Metallurgiya sanoati	1,1	107,2
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	13,93	138,4
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,12	107,7
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	2,97	106,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	15,73	107,6
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	284,78	147,4
Mebel ishlab chiqarish	3,2	109,3
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	15,4	93,4
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	2,3	94,1
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>42,1</b>	<b>124,2</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>4,31</b>	<b>122,0</b>
<b>Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish</b>	<b>475,3</b>	<b>119,2</b>


Iqtisodiy faoliyat turlari	mlrd.so'm	O'sish sur'ati, foiz hisobida
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	125,2	106,1
nooziq-ovqat tovarlari	345,2	125,6

**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi  
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)**

2017 yil yanvar-fevral




2018 yil yanvar-fevral



- Nooziq-ovqat mahsulotlari
- Oziq-ovqat mahsulotlari


Shahar va tumanlarda 125,2 mlrd.so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 345,2 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari (2017-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan mos ravishda 106,1 foiz va 125,6 foiz) ishlab chiqarildi.

**2018-yil yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.  
(mlrd. so'm)**




Viloyatda 475,3 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2017-yil yanvar oyiga nisbatan 139,7 foizni tashkil etdi.


**2018-yil yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.  
(foizda)**



**2018-yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



**2018-yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi**  
**“Sanoat statistikasi” bo’limi**  
**Nashr uchun ma’sul: K.Kuryazov**  
**Aloqa telefoni (0362) 224-64-99**